Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 316
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

# KO'CHMANCHILAR POPULYATSIYALARI DEMOGRAFIYASI VA PALEOGENETIKASIGA OID MULOHAZALAR

Shavkat Safaraliyevich Amanturdiyev*
*Termiz Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi*
✉ shavkatomonturdiyev198@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada so'nggi bronza va ilk temir davrida O'rta Osiyo hududida istiqomat qilgan ko'chmanchi aholining murakkab demografik tarixi paleogenetik tadqiqotlar kontekstida tahlil qilingan. Tadqiqotda mintaqa aholisi shakllanishida ishtirok etgan turli genofondlar, migratsiya yo'nalishlari hamda g'arbiy va sharqiy sak guruhlarining zamonaviy turkiy tilli xalqlar genofondi bilan bog'liqligi masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, avtoxton aholining kengayish dinamikasi va otning xonakilashtirilishi demografik o'sishga ta'siri ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar**

O'rta Osiyo, temir davri, paleogenetika, demografiya, avtoxton aholi, saklar, turkiy guruhlar, genlar oqimi, migratsiya.

DOI: 10.5281/zenodo.21743860

## KIRISH

O'rta Osiyoning o'ta murakkab demografik tarixi o'tmishda sodir bo'lgan turli xil genetik va etnik birliklarning o'zaro qorishuv jarayonlaridan iborat. Mintaqaning zamonaviy populyatsiyalari madaniy va lingvistik jihatdan asosan ikki guruhga, ya'ni turkiy va hind-eron tillarida so'zlashadigan populyatsiyalarga ajratiladi. So'g'ni 20-30 yil ichida Yevroosiyo kengliklarida olib borilgan Y-DNA, mtDNA, izotop, pollen hamda sediment core (cho'kindi jinslar qatlami) tahlillari arxeologiya va tarix fanida temir davri ko'chmanchilarining paydo bo'lishi, shakllanishi va tarqalishi haqidagi tasavvurlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Paleogenetika sohasidagi eng so'nggi yutuqlar tufayli tarixiy demografiyani faqatgina moddiy ashyolar orqali emas, balki bevosita biologik manbalar yordamida aniqlashtirish imkoniyati vujudga keldi.

**Paleogenetik tadqiqotlar va ularning ilmiy ahamiyati.** Mintaqa aholisining biologik tarixini o'rganishda Q. Fu, M. Allentoft, D. Anthony, J. R. Bentley, I. Lazaridis, C. Keyser, V. Heyd va A. Damgaard kabi dunyoning yetakchi olimlari tomonidan olib borilgan paleogenetik tadqiqotlar muhim burilish yasadi. Ushbu olimlarning izlanishlari so'nggi bronza va ilk temir davri populyatsiyalarining genetik aralashmasi tarkibini, shuningdek, turli davrlardagi etnik migratsiya yo'nalishlarini aniq ko'rsatib berishga ulkan hissa qo'shdi.

Olingan paleogenetik tahlillar O'rta Osiyo temir davri aholisi shakllanishida mutlaqo farqli va turli xil genofondlar ishtirok etganligini tasdiqlaydi. Biroq, shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ushbu ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan qadimgi DNK namunalari hozircha ommaviy xarakterga ega emas. Ular nisbatan kam sonli tahlillar va individual skelet qoldiqlari orqali olinganligi sababli, ushbu xulosalarning barchasini ham to'g'ridan-to'g'ri mutloq va yakuniy ilmiy xulosa sifatida qabul qilib bo'lmaydi. Ular kelgusida ko'proq antropologik materiallarni tahlil qilish orqali yanada to'ldirilishi talab etiladi.

**Genlar oqimi va avtoxton aholining kengayish dinamikasi.** Temir davrida O'rta Osiyo mintaqasida kuzatilgan genlar oqimi va populyatsiyalar almashinuvi, ilgari tarixshunoslikda taxmin qilinganidek, faqatgina g'arbdan sharqqa tomon yo'nalgan uzluksiz migratsiyadan kelib chiqmaydi [2, B. 139]. Aksincha, bu jarayon

ko‘p jihatdan mahalliy avtoxton (tubjoy) aholining turli yo‘nalishlarda kengayishi va ichki demografik o‘sishini anglatadi. G‘arbdan kelgan tashqi migratsiyaning mintaqa demografiyasiga ko‘rsatgan ta‘siri, mahalliy chorvador va o‘troq avtoxton aholining son jihatdan yaqqol ustunligi sababli, ilk temir davrida mintaqa aholisi tarkibida sezilarli darajada past bo‘lgan.

Aksincha, hind yoki eron genetik komponentlari O‘rta Osiyoda yashagan ko‘chmanchilar tomonidan amalga oshirilgan tashqi migratsiyalar natijasida Oltoy, Sibir yoki boshqa uzoq hududlarga olib borilganligi ilmiy jihatdan kuzatiladi. Hind-eron yoki boshqa g‘arbiy guruhlarga xos bo‘lgan gen tashuvchi guruhlar tahlil qilinayotgan hududlarda temir davridan ancha oldin ham mavjud bo‘lgan. Keyinchalik turli ijtimoiy-isoqisodiy sabablar va chorvachilik, xususan, otning xonakilashtirilishi natijasida dasht chorvador aholisining geografik jihatdan turli yo‘nalishlarda kengayishi tezlashdi. Ot tufayli ko‘chmanchilarning harakatlanish radiusi keskin oshdi va bu g‘arb genlarining boshqa uzoq mintaqalarga ham yetib borishiga xizmat qildi.

2017-yilda Yevroosiyo kengliklarida istiqomat qilgan qadimgi skif va sak qabilalarining suyak qoldiqlari asosida o‘tkazilgan temir davriga oid eng yirik paleogenetik tadqiqotlardan biri fanga juda qiziqarli ma‘lumotlarni taqdim etdi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, sharqiy skif (sak) guruhlaridan biologik va genetik jihatdan bevosita kelib chiqish ehtimoli eng yuqori bo‘lgan zamonaviy aholi qatlamlari deyarli faqat turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ayniqsa, Janubiy Sibir va Markaziy Osiyo hududida istiqomat qiluvchi telengitlar, tuvalar hamda keng ma'noda Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan boshqa turkiy tilli aholi guruhlari, shuningdek, g‘arbiy mintaqalarda yashaydigan Qozon Volga-tatarlari kabi turkiy xalqlar qadimgi sharqiy saklar bilan o‘ta yuqori genetik statistik o‘xshashlikni va yaqinlikni ko‘rsatmoqda [1, B. 143]. Yuqorida keltirilgan ilmiy ma‘lumotlar va olingan natijalar bugungi kunda aholi demografiyasi hamda paleogenetikasi muammolari bilan bevosita shug‘ullanuvchi boshqa ko‘plab xalqaro tadqiqotchilar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanmoqda va kamida temir davri populyatsiyalari strukturasi uchun o‘zlarining fundamental xulosalari [3, B. 395-410] bilan tasdiqlanmoqda.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash lozimki, O‘rta Osiyo temir davri aholisining demografik manzarasi faqat bir tomonlama ko‘chishlar bilan emas, balki kuchli ichki avtoxton o‘sish va otliq chorvachilik madaniyatining kengayishi natijasida shakllangan murakkab tizimdir. Paleogenetik tahlillar qadimgi sak-skif ittifoqlari tarkibidagi sharqiy guruhlarning zamonaviy turkiy tilli xalqlar genofondiga qo‘shgan hissasi nihoyatda salmoqli bo‘lganligini ko‘rsatadi. Garchi hozirda tahlil qimen namunalar soni kam bo‘lsa-da, DNK tahlillari va tarixiy demografiya usullarining birgalikda qo‘llanilishi mintaqamiz etnik tarixidagi ko‘plab qorong‘u sahifalarni ilmiy asosda yoritishga xizmat qilmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Unterländer, M., Palstra, F., Lazaridis, I., Pilipenko, A., Hofmanová, Z., Groß, M., Burger, J., Fu, Q., Allentoft, M., Anthony, D., Damgaard, A. et al. Ancestry and demography and descendants of Iron Age nomads of the Eurasian Steppe // Nature. - London : Nature Publishing Group, 2017. - Vol. 8, doi: 10.1038/ 14615.
2. Mercedes González-Ruiz, Cristina Santos, Xavier Jordana, Marc Simón, Carles Lalueza-Fox, Elena Gigli, Maria Pilar Aluja, Assumpció Malgosa. Tracing the Origin of the East-West Population Admixture in the Altai Region (Central Asia). 2012, Nov-9; 7(11): e48904. doi: 10.1371/journal.pone.0048904.
3. Mercedes González-Ruiz, Cristina Santos, Xavier Jordana, Marc Simón, Carles Lalueza-Fox, Elena Gigli, Maria Pilar Aluja, Assumpció Malgosa. Tracing the Origin of the East-West Population Admixture in the Altai Region (Central Asia). 2012 Nov 9,7(11): e48904. doi: 10.1371/ journal. pone. 0048904; Keyser C, Bouakaze C, Crubezy E, Nikolaev VG, Montagnon D, et al. Ancient DNA provides new insights into the history of south Siberian Kurgan people. Hum Genet. 2009. 126: - pp. 395-410; Li C, Li H, Cui Y, Xie C, Cai D, et al. Evidence that a West-East admixed population lived in the Tarim Basin as early as the early Bronze Age. 2010. BMC Biol 8: - pp. 1-12.